“Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy onlayn konferensiya o’z ishini boshladi

2020-yil 16-sentyabrda O’zbekiston Respublikasi fan arbobi, akademik Baxtiyor Nazarov tavalludining 75 yilligi munosabati bilan O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi O’zbek tili, adabiyoti va folьklori instituti, O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti, Akademik B.G’afurov nomidagi Xo’jand davlat universiteti, Buxoro davlat universiteti, Urganch davlat universiteti, Qo’qon davlat pedagogika instituti hamkorligida “Adabiyotshunoslikning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro ilmiy onlayn konferensiya o’z ishini boshladi.

Konferensiya 19 sentyabrga qadar 4 sho`bada davom etadi.